



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
ZAHRIDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

FILOLOGIYA FAKULTETI

3 - “V” GURUH TALABASI

Ahmadjonova Layloning

“O‘zbek tili tarixi” fanidan

REFERATI

ANDIJON - 2012

MAVZU: QADIMGI TURKIY TIL MORFOLOGIYASI. OT VA SIFAT FORMALARINING XUSUSIYATLARI.

Dars rejasi:

1. Qadimgi turkiy tilni umummorfologik xususiyatlari.
2. Ot turkumiga oid xususiyatlar. Ot yasovchi affikslar. Ko'plikka xos xususiyatlar. Egalik affikslariga oid xususiyatlar. Kelishik xususiyatlari.
3. Sifat turkumiga xos xususiyatlar.

Qadimgi turkiy til morfologik tip jihatidan turkiy tillar singari agglyutinativdir. So'z formalari so'zning negiziga maxsus qo'shimchalarni muayyan tartibda qo'shish yo'li bilan yasaladigan tillar agglyutinativ tillar deb ataladi. Ammo qadimgi turkiy tildagi morfemalar hozirgi o'zbek adabiy tili va singarmonizmni yuqotgan shevalardan singarmonistik variantlarining borligi bilan farqlanadi. Lekin bu sof morfologik farq bo'lmay, fonetik farqdir.

Hozirgi o'zbek adabiy tili morfologiyasidan qadimgi turkiy til morfologiyasining umumiy farqi quyidagilardan iborat:

1. Hozirgi zamon morfemalari qadimgi turkiy tildagiga nisbatan miqdoran ko'p va mazmunan boy.
2. Hozirgi o'zbek tilida yo'q bo'lgan yoki alohida element sifatida o'qilmaydigan morfemalar ham bor.
3. So'z va forma yasovchi chet til morfemalari yuq.
4. Murakkab morfemalar juda kam.

Ot.

Ko'plik. Bu davrda ko'plikning asosiy va ko'p ko'llanadigan ko'rsatkichi *-lar* ko'shimchasi bo'lib, u qalin va ingichka variantlarga ega.

qalin negizga *-lar*, ingichka negizga *-ler* varianti qo'llaniladi: kunchuy (xonim) - kunchuylar (xonimlar) beg (bek) - bekler (beklar)

Bu davrda n bilan tugagan ba'zi so'zlarning ko'pligi shu n ni t ga aylantirib yasalganini ko'rish mumkin. eren (jangchi) - eret (jangchilar)

Eslatma: Birlik maxsus affiks bilan ifodalanmaydi.

Kelishik qadimgi turkiy tilda 7 ta kelishik bo'lgan ular quyidagilar:

1. Bosh kelishigi.

2. Qaratqich kelishigi. ko'shimchasi -нық -niq; -kuq; -nUq; -naq; -neq -ық; -iq; -uq; -Uq.
Masalan: бауыркунуқ, бурханларнақ

3. Tushum kelishigi. qo'shimchasi -g'; -g; -ыг'; -ig; -ug'; -Ug; -ag'; - eg; -ы; -i; -n; -ni; -ны. Masalan, sU (lashkar) - sUg (lashkarni); tash (tosh) - tashыг' (toshni).

4. Vosita kelishigi. qo'shimchasi -n; -ым; -in; -Un; -an; -en. U ish harakatining sodir bo'lgan o'rnini, boshlaning o'lonini, birgalik vosita ma'nolarini ifodalaydi. Masalan, qolqaym eshidip – til bilan so'zlab:

5. Jo'nalish kelishigi. qo'shimchasi -g'aru; -geru; -qaru; -kerU; -g'ar; -g'or; -ru; -rU; -ra; -re; -qa; -ke; -g'a; -ge; -ya; -ye; -a; -e. Masalan, og'uzg'aru - og'izga; biziqeru '- bizga, uyg'urg'aru, maqar,saqar, maru, beru, ichre, tag'a.

6. O'rin-payt kelishigi.-da; -de; -ta; -te. Masalan, tayg'an kelte tiriltim (askar to'pladim).

7. CHikish kelishigi. CHiqish ko'shimchasi -дын; -din; -тын; -tin -dan; -den; -tan; -ten. Qadimgi turkiy tilning oxirgi davrlariga xos yodnomalarda uchraydi. Eldin, elke, baыqдын, baыqqa, ulushдын, ulushqa.

Otlarning yasalishi.

Qadimgi turkiy tilda ot, otlashgan so'z yoki sifatdan ot yasovchi quyidagi qo'shimchalar bor:

1. -чы; -chi. qo'shimchasi. Bu ko'shimcha kasb va biror yumush egasini bildiruvchi ot yasaydi. Masalan, bediz (naqsh) - bedizchi (nakqosh); yog'(aza) - yog'чы(azani boshqaruvchi).

2. -ық; -lik -luq; -lUk qo'shimchasi. Bu ko'shimcha mavhumlik makon va tanovar anglatadi. Masalan, ach (och) - achық (ochlik); yemish (meva) - yemishlik (mevazor).

3. -an; -en qo'shimchasi yetuklikni bildiradi va -an varianti qalin negizga, -en zsa ingichkasiga ko'shiladi: er(er) – eren (mard, jangchi); og'ul(bola) – og'lan (ug'il bola, yigit).

4. -qan (-xan); -kzn qo'shimchasi. Bu qo'shimcha laqab, unvon, geografik va astronomik nomlar tarkibida uchraydi. Masalan, tengri (tangri) - tengriken (xudojuy).

5. -qaq; -kek -g'aq -gek qo'shimchasi. Bu qo'shimcha otga qo'shilganda, maxdudliq chegaralanganlik va fe'lga qo'shilganda qurol, vosita yoki mubolag'ani bildiradi. Masalan, qach(qoch) –qachqaq (qochoq, qochqoq)

6.-qu:-kU;-g'u; -gU qo'shimchasi.Mavhumlik ma'nosini bildiradi.Inch (tinch) – inchU (tinchlik)

7. -tam; -tem; -dam; -dem qo'shimchasi. Otdan ot yoki sifat yasaydi. Er(er) - erdem (odob, yetuklik).

8. -tash; -tesh; -dash; -desh qo'shimchasi. Bu qo'pshimcha hozirgi o'zbek tilidagi -dosh ning o'zidir. qa(idish) - kadash(tug'ishgan).

9. -sh qo'shimchasi. Bag'(bog', boylam) - bag'ysh (bo'g'in)

10. -suq –sUk qo'shimchasi. Bag'ir(jigar) - bag'irsuq(ichak)

11. -sung; -sUsh qo'shimchasi. Bu qo'shimcha –suq , -sUk qo'shimchsi bilan bir manbaga ega.. CHunki turkiy tillarda q(k)-sh mosligi bor. Suv(suv) - suvsush(ayron)

12. -m. al(ol) - alym(karz- qarz berganga nisbatan)

13. -q; -k -G'; -g; -ыq; -ik -uq -Uq yaz(yomonlik qil)

4. -qын; -G'ЫN; -kin; -G'IN; -qun; -g'un; -kUn; -gUn. qach(qoch) -qachg'yn(qochqin).

Sifat.

• Predmetning rangini, tusini bildiradi. Ala, aq, qara, yeshyl.yagyz - kulrang.Predmetning xususiyatini: aryg'-toza, sog'ug'-sovuq

Predmetniig sifatini va holatini bildirada: bilgel -bilimli, quzg'un -botir.

Qiyosiy daraja -raq -rek: yigrek (yaxshirok), artukrak(ortiqroq)

Intensiv forma:

aqyg' – aqig' yablaq - juda yomon; aqyg' edir - juda yaxshi.

ked; ket, ked qoqul tegUrUp tyleqler - juda o'tinchli ko'ngil bilan tilanglar.

tO'z - tO'z koringsiz - juda yuqori, yig - yig UstUnki - eng yuqorisi.

ertingU - ertingU ag'yr - o'ta og'ir; choq - choq yalynlyg' - juda otashli

Sifatning yasalishi.

1. -lyg', -lig, -lug', -lug. Bu qo'shimchalar otdan sifat yasaydi va egalik hamda nisbatni bildiradi. Ekin(ekin) - ekinlig(ekinli)

2. -syz, -siz, -suz, -sUz. Bu qo'shimcha otdan egasizlik va yo'qlik bildiruvchi sifat yasaydi. Bilig(bilim) - biligsiz(bilimsiz).

3. -saq –sek. Bu istak bildiruvchi fe'l yasovchi -sa,-se hamda fe'ldan sifat va ot yasovchi –q-k qo'shimchasining birlashuvidan hosil bo'lgan. Bag'yr(jigar) - bag'irsaq(ko'ngilchan).

4. -sYg', -sig. Bu ko'shimcha otdan sifat yasaydi va o'xshashlik ma'nosini bildiradi.qul(qul) - qulsyg'(kulsimon); beg(bek) - begsig(beksimon).

5. -qы,-ki;(-g'ы,-ga).Bu qo'shimcha ot, ravish va olmoshdan nisbiy sifat yasaydi. Jarangsia

undosh bilan tugagan qalin negizga -K1, ingichkasiga -ki; jarangli undosh bilan tugagan qalin negizga -гы, ingichka negizga -ga qo'shiladi.

ay(oy)-ayqы(oyga oid);yay(yoz)- yayгы(yozgi); ichre(ichsa) –ichreki (ichidagi).

6. -z qo'shimchasi. Bu qo'shimcha fe'ldan sifat yasaydi. u-(qila bil) - uz(mohir).

7. -l qo'shimchasi. Bu qo'shimcha yashыл(yashil), qызыл(qizil), tUkel(tugal) singari suvlar tarkibida uchraydi.

-raq formasi. Bu davr yodnomalarida hozirgi o'zbek adabiy tilidagi -roq kalin (-rak) va iigichka (-rek) variantlariga ega va u sifatning orttirma darajasini bildiradi.

YIG(yaxshi) - YIGREK(eng yaxshi)

artuq(ortiq) - artukraq(eng ortiq) va shu kabi misollarni ko'plab keltirishimiz mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Абдурахмонов Ғ., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. –Т., 1973.
2. Мухторов Ж., Саноқулов У. Ўзбек адабий тили тарихи. - Т. Ўқитувчи. 1995.
3. Турсунов У., Ўринбоев Б., Алиев А. Ўзбек адабий тили тарихи. - Т., Ўқитувчи. 1995.
4. Фозилов Э. Ўзбек тилининг тарихий морфологияси.-Т., 1965.